

INGLIZ TILIDA IBORALARNING QO‘LLANILISHI

*Gulzebo Nuraliyeva*

*DTPI o‘qituvchi*

*Tel: +998994259091*

*E-mail: ms.gulizebo@mail.ru*

*Mashhura Himoyiddinova*

*DTPI student*

*Tel: +998900992798*

*E-mail: [himoyiddinovamashhura@gmail.com](mailto:himoyiddinovamashhura@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola leksikologiyaning muhim bo‘limlaridan biri frazeologiya sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ingliz va o‘zbek tili frazeologik birliklarining o‘zaro farqi va bir biriga bog‘liqligi, tarjima qilish jarayonidagi o‘zaro qiyosiy shakllari va nitqimizning ta‘sirchanligini oshiradigan turli xil iboralar o‘rganiladi. Ikki til o‘rtasida iboralarni o‘rganish va semantik-grammatik, funksional stilistik xususiyatlarini namoyon qilish ushbu ishning dolzarbligini ko‘rsatadi va umumiy xulosalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** frazeologizm, Uilyam Shekspir, sinonim, antonim, so‘z birikmasi, turg‘un ibora, ta‘sirchan nutq, maqbul tarjima.

Frazeologizmlar ixcham, ma‘no jihatdan salmoqli til biriigi bo‘lib, davr ruhiga mos keladi, chunki milliy qadriyatlar, urf-odatlar rivoj topib borayotgan davrda so‘zlovchidan har tomonlama ixcham, asosli, va ta‘sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Quyida biz frazeologizmlar mohiyatini anglashga harakat qilib otamiz. Frazeologizm ya‘ni idioma (yunoncha: idioma — xususiyat, o‘ziga xoslik) — frazeologizmlar (qarang Frazeologiya) turi; muayyan bir tilga xos bo‘lib, boshqa tillarga aynan tarjima qilib bo‘lmaydigan nutq birligi yoki ibora. Hozirgi kunda iboralarni turli tillar o‘rtasida qiyosiy o‘rganish va umumiylik va xususiylik dialektikasini to‘laqonli namoyon qilish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bilamizki, har bir tildagi iboralar o‘sha xalqqa tegishli bo‘lgan madaniyat, ma‘naviyat, urf-odat, yashash sharoiti bilan chambarchas bog‘liqdir. Iboralarni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash nutqning, badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta‘sirchanligi va muhimligini belgilab berishda muhim omil hisoblanadi. Biz buni o‘zbek va ingliz tillari misolida ko‘radigan bo‘lsak, ingliz tilidagi iboralar o‘zbek tiliga ma‘no mazmun va shakl jihatdan ham mos kelavermaydi va biz buni ingliz tilida frazeologik chatishma ya‘ni ma‘nosi butunlay o‘zgargan so‘z birikmalar misolida ko‘rishimiz mumkin. Ular tarkibiy qismlar ma‘nosidan anglashilmaydi. Frazeologizmlar ma‘nosi uning tarkibiy qismlarining ma‘nolaridan qanchalik ko‘p farq qilsa, semantik birikuv darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Masalan: heavy father - teatr asaridagi asosiy rol; red tape-byurokratik metod; to kick the bucket -o'lmoq, to look a gift horse in the mouth ( to eramine a person critically; to find fault with smth one gained without effort); to ride the high horse (to behave in a superior, haughtily, overbearing way); a big bug (a person to importance); to fish out of water (a person situated uncomfortably outside his usual or proper environment) kabi iboralar yaxlit holda bir ma'no anglatuvchi frazeologizmlardir. Iboralar ya'ni frazeologik birliklarni boshqa so'z bilan almashtirib bo'lmaydigan tayyor shakldagi birikmalar bo'lib barcha uchun tushunarli va qo'llash uchun qulay hisoblanadi. Shu bilan birga ingliz tilida ham antonim, sinonim kabi tushunchalar ham mavjud. Masalan: carry on, continue, go on- davom ettirmoq, a dark house, black ship- sirli ma'nolarini bildiradi va o'zaro sinonim bo'la oladi.

Nutqimizni boshqalaridan ajratib turuvchi iboralar.

1. Ain't no - ensasi qotish
2. Going buta (be nuts) - aqldan ozibdi, tomi ketibdi
3. Let's just say - qisqacha qilib aytganda
4. Let's sleep on it - ertagacha qoldiraylik
5. Help yourself - oling-oling, bemalol
6. May I be excused - tashqariga chiqsam maylimi
7. Name after somebody - ning nomi bilan aytmoq
8. Up and down - u yoqdan bu yoqqa
9. Upside down - ostin-ustin
10. Up-to-date - zamonaviy
11. Blow one's mind - lol qoldirmoq
12. Chill out - xordiq chiqarmoq
13. Feel up to - biror nimaga tayyorgarlikni his etish
14. Lose one's temper - g'azablanmoq
15. Put on airs- o'zini baland olmoq
16. Get on someone's nerves - asabiga tegmoq
17. Cross one's mind - hayolga kelmoq
18. Make up one's mind - qaror qabul qilmoq
19. Pull oneself together - o'zini qo'lga olmoq
20. Keep cool - sovuq qonlikni saqlamoq

Endi esa ushbu iboralarni gaplar misolida ko'ramiz:

1. That she knew my name blew my mind
2. Can you just chill out, maybe?
3. If you feel up to a short walk, there's a place to eat around the corner
4. Now excuse me before I lose my temper
5. You have been here so long you are starting to get on my nerves
6. The thought of escaping crossed my mind

7. I haven't made up my mind yet

8. Pull yourself together. You are making me sick. Be a man!

Jahon tilshunosligida frazeologizmlar keng va tor ma'noda tushuniladi. Frazeologiyani keng ma'noda tushunuvchi olimlar uning tarkibiga maqolalar, matallar, aforizmlarni kiritadilar, tor ma'nodagi frazeologiya tarafdorlari esa frazeologik birliklarni ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganish bilan cheklanadilar. Ingliz frazeologiya lug'atini boyitishga o'z hissasini qo'shgan bir qator ingliz yozuvchilari ham bor. Masalan: Jeffri Choser, Volter Skott, Edmond Spenser, Tomas Braun, Uillyam Shekspir shular jumlasidandir. Ayniqsa Uillyam Shekspirning frazeologizmlari xristianlarning muqaddas kitobi Bibliyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Bu iboralarning ma'no jihatdan qanchalik

ta'sirchan va kuchli ekanligini ko'rsatadi.

Masalan:

1. A fool's paradise - hayoldagi baxt, hayolot olami

2. Cakes and ale - pirojniy va pivo; tashvishsiz quvonch, hayotdan zavqlanmoq

3. I am fed up with it! - jonga tegdi!

4. To have a go - sinab ko'rmoq

5. Give the devil his due - dushmanga tan bermoq

6. There is a deer - ziyrak bo'ling

7. He green-eyed monster - yashil ko'zli berahm odam; rashkchi

8. That's got him - qilmish qidirmish

9. Have an itching palm - poraxo'rlik qilmoq, tamagir

10. Not to care a fig - hammaga birdek bo'lmoq

11. Lay it on with a trowel - bo'rttirib maqtamoq, haddan tashqari maqtamoq

Iboralar bilan bir qatorda maqollar ham o'zaro sinonim, antonym bo'la olish xususiyatiga egadir. Maqollar bir-biri bilan sinonim bo'lishi mumkin:

Make hay while the sun shines. Strike the iron while it is hot.

After rain comes sunshine - yomg'irdan so'ng quyosh chiqadi

A bird may be known by its song- qushning qandayligini sayrashidan bilish mumkin

A honey tongue, a heart of gull- tili asal, yuragi zahar

A word of spoken is past recalling-aytilgan so'z, otilgan o'q

After death the doctor- o'limdan keyin doktor, to'ydan keyin nog'ora

As you brew, so you must drink-nimani qaynatsang(damlasang) shuni ichasan

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilidagi iboralar, o'zbek tilidagidek boshqa so'zlar bilan almashtirib bo'lmaydigan tayyor shakldagi birikmalar va ular nutqimizni yanada ma'noli va ta'sirchan qiladi. Ingliz frazeologizm sohasida Uillyam Shekspirning o'rni yuqori ekanligi va uning frazeologizmlar jamlangan kitobi Bibliyadan keyin ikkinchi

o‘rinda turishi haqida ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkin. Shu bilan birga ibora va maqollarning o‘zaro sinonim va antonim shakllari haqida ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkin. Ularni gaplar asosida yoritilganligi esa yanada yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi. So‘zlar iborada mavjud bo‘lib lekin tarjimasini umuman iboraning tarjimasiga bog‘liq bo‘lmasligi esa bu mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda ushbu mavzu ya’ni frazeologizm sohasi bo‘yicha ko‘plab izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mednikova E.M.. Seminars in English Lexicology. M, 1978. 30.
2. Mirzayev M, Usmonova S, O‘zbek tili. T, - o‘qituvchi, 1978
3. Til va tarjima. Toshkent, 1966.
4. Macmillan English Dictionary. New- York, 2010.
5. Little W. The Shorter Oxford Dictionary, Clarendon. Press 1933.
6. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi,- T. 1997.
7. Yo‘ldoshev B. Frazeologizmlarining adabiy til normasi munosabatiga doir, - T. 1992.